

“BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGIDA REFLEKSIV AMALIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI”

Xodjayeva Nilufar Salimovna

O‘zDJTU “Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

nilufar.19x5@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22767269>

Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-sentabr 2026-yil

Annotatsiya:

Ushbu tezisda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida refleksiv amaliyotning nazariy-metodologik asoslari yoritiladi. Tadqiqotning nazariy negizini J. Dewey va D. Schönning refleksiya nazariyalari, shuningdek T. S. C. Farrell, J. C. Richards va C. Lockhart, P. Hudson kabi tadqiqotchilarning ishlari tashkil etadi. Refleksiv amaliyot uzluksiz kasbiy sikl — faoliyat, kuzatish, anglash, tahlil, xulosa va yangi qaror bosqichlaridan iborat jarayon sifatida asoslanadi, uning kognitiv, hissiy va kontekstual omillarga bog‘liqligi hamda dalillarga tayanish zarurati ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar:

refleksiya, refleksiv amaliyot, reflection-in-action, reflection-on-action, kasbiy refleksiya, pedagogik amaliyot, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi.

Zamonaviy pedagogik ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri nafaqat fan bo‘yicha bilimga ega, balki o‘z kasbiy faoliyatini anglay oladigan, pedagogik vaziyatlarni tanqidiy tahlil qiladigan va qabul qilingan qarorlarning oqibatlarini baholay oladigan o‘qituvchi tayyorlashdir. Ingliz tili o‘qituvchisining faoliyati kommunikativ vaziyatlarning murakkabligi, o‘quvchilarning individual farqlari va dars jarayonidagi tezkor pedagogik qarorlar bilan tavsiflanadi, shu sababli refleksiv kompetensiya uning kasbiy mahoratining zarur tarkibiy qismiga aylanadi.

Pedagogik adabiyotlarda refleksiya tushunchasi ko‘pincha oddiy “dars haqida o‘ylash” bilan tenglashtiriladi, biroq bu yondashuv uning metodologik mohiyatini to‘liq ochib bermaydi. Shu boisdan refleksiv amaliyotning nazariy-metodologik asoslarini aniqlashtirish, uning tarkibiy bosqichlari va uni shakllantiruvchi omillarni ko‘rsatib berish dolzarb ilmiy-metodik ahamiyat kasb etadi. Refleksiya g‘oyasining zamonaviy pedagogik talqinida J. Dewey¹ va D. Schönning ishlari alohida o‘rin tutadi. Dewey refleksiyani oddiy fikrlash yoki o‘z-o‘ziga qarash bilan cheklamasdan, e’tiqod yoki taxmin qilingan bilimni uni asoslovchi dalillar hamda undan kelib chiqadigan oqibatlar nuqtayi nazaridan faol va tizimli ko‘rib chiqish jarayoni sifatida talqin qiladi. Bunday yondashuv o‘qituvchi uchun “nima qildim?” savolidan ko‘ra “nega bunday qildim?”, “qaysi dalillar mening qarorimni asoslaydi?” va “bu qaror qanday natijaga olib keldi?” kabi savollarni muhimlashtiradi hamda pedagogni odatiy, avtomatlashgan qaror qabul qilishdan chiqarib, kasbiy o‘shishning ichki mexanizmini ta’minlaydi [1].

¹Dewey J. How We Think. Boston: D. C. Heath and Company, 1933.

D. Schön² refleksiyanı professional amaliyot bilan bevosita bog'lab, reflection-in-action va reflection-on-action tushunchalarini asoslab berdi. Birinchi holatda mutaxassis faoliyatning o'zi davomida vaziyatni anglaydi va zarurat tug'ilganda o'z harakatini darhol o'zgartiradi; ikkinchi holatda esa amalga oshirilgan faoliyat tugagach, u qayta ko'rib chiqiladi va undan kelgusi harakatlar uchun xulosa chiqariladi³. Ingliz tili darsi misolida bu ikki jarayonning o'zaro bog'liqligini ko'rish mumkin: o'qituvchi o'quvchilarning mavzuni tushunmayotganini sezib, tushuntirish usulini dars jarayonidayoq o'zgartirsa (reflection-in-action), darsdan keyin ushbu qarorning sababi va samaradorligini tahlil qilib, keyingi dars uchun yangi strategiya belgilaydi (reflection-on-action) [2, 3]. Refleksiv amaliyotning asosiy metodologik xususiyati uning uzluksizligidadir⁴: u darsdan keyingi bir martalik hisobot bilan tugamaydi, balki har bir pedagogik vaziyat yangi savollarni yuzaga keltiradi va yangi xulosalar keyingi faoliyatni o'zgartiradi. Shu asosda refleksiv amaliyotni quyidagi metodologik sikl orqali ifodalash mumkin: faoliyat → kuzatish → anglash → tahlil → xulosa → qaror → yangi faoliyat → qayta refleksiya. Ushbu sikl chiziqli emas, balki spiralsimon xususiyatga ega: har bir yangi tsikl oldingi tajriba asosida boyitilgan tahlil darajasini talab qiladi [5].

Refleksiv amaliyot faqat kognitiv tahlil bilan cheklanmaydi. Pedagogning hissiy holati, o'ziga bo'lgan ishonchi, o'quvchilar bilan munosabati, shuningdek madaniy, tashkiliy va vaqt omillari ham pedagogik qarorlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli refleksiv o'qituvchi o'ziga faqat "mening metodim to'g'rimi?" deb emas, balki "mening pedagogik qarashlarim ushbu metodni tanlashimga qanday ta'sir qildi?", "o'quvchilarning individual ehtiyojlari hisobga olindimi?" kabi savollarni ham qo'yishi lozim — bu esa refleksiv amaliyotni nafaqat kognitiv, balki affektiv va kontekstual jihatlarini ham qamrab oluvchi kompleks jarayon sifatida belgilaydi [10]. Refleksiv amaliyotning samaradorligi bevosita dalillarga tayanish darajasiga bog'liq. Reflektiv kundalik, o'z-o'zini baholash, peer-observation⁵, mentorlik⁶, portfolio va video tahlil kabi vositalar refleksiya uchun zarur empirik asosni ta'minlaydi, biroq ularning o'zi refleksiv kompetensiyaning yakuniy ko'rsatkichi emas. Boshqacha aytganda, reflektiv vositalar refleksiyani tashkillashtiradi, refleksiv amaliyot esa ushbu vositalar orqali to'plangan ma'lumotlarni pedagogik qarorlarni qayta ko'rib chiqish, yangi strategiyalarni sinab ko'rish va natijani qayta baholashga aylantiradi. Masalan, kundalik yuritishning o'zi hali refleksiv amaliyot shakllanganini bildirmaydi — kundalikdagi xulosalar asosida dars strategiyasi real o'zgarmasa, jarayon to'liq amalga oshmagan hisoblanadi [4, 7, 8].

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy refleksiyasini metodologik jihatdan baholash uchun uch darajali mezondan foydalanish maqsadga muvofiq⁷: past daraja — refleksiyaning epizodik va tavsifiy xarakterda bo'lishi; o'rta daraja — refleksiyaning muntazam, biroq tahlil chuqurligi cheklangan bo'lishi; yuqori daraja — faoliyatni tizimli va tanqidiy tahlil qilish hamda xulosalarni keyingi pedagogik faoliyatga real tatbiq etish. Bunday darajalash reflektiv vositalarning mavjudligini ulardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan haqiqiy pedagogik o'zgarishdan farqlash imkonini beradi [9].

Tadqiqot natijalaridan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik amaliyotini tashkil etishda foydalanish mumkin⁸. Xususan, amaliyot dasturiga reflektiv kundalik, peer-observation, mentorlik suhbatlari, video tahlil va portfolio topshiriqlarini tizimli kiritish, shuningdek ularni baholashda tavsifning mavjudligi,

²Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983.

³Schön D. A. Educating the Reflective Practitioner. San Francisco: Jossey-Bass, 1987.

⁴Farrell T. S. C. Reflective Practice in Action. Corwin Press, 2004.

⁵Richards J. C., Lockhart C. Reflective Teaching in Second Language Classrooms. Cambridge: Cambridge University Press, 1994.

⁶Hudson P. Mentoring Pre-service Teachers. Routledge, 2013; Sempowicz T., Hudson P. Mentoring pre-service teachers' reflective practices towards producing teaching outcomes // International Journal of Evidence Based Coaching and Mentoring. 2012. Vol. 10, No. 2. P. 52–64.

⁷Loughran J. Effective reflective practice // Journal of Teacher Education. 2002. Vol. 53, No. 1.

⁸Farrell T. S. C. Reflective Practice in Teaching English. Routledge, 2019.

sababiy tahlil, dalillardan foydalanish, alternativ yechimlar va amalga oshirilgan o'zgarish natijasini tekshirish kabi indikatorlarni qo'llash tavsiya etiladi [6].

Refleksiv amaliyotning nazariy-metodologik asoslari uni tasodifiy yoki intuitiv jarayon sifatida emas, balki dalillarga asoslangan, bosqichma-bosqich rivojlanadigan va kasbiy o'zgarishga yo'naltirilgan tizimli faoliyat sifatida belgilash imkonini beradi. Dewey va Schön nazariyalari ushbu jarayonning fikrlash va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini, metodologik sikl esa uning bosqichma-bosqich tuzilishini asoslaydi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy shakllanishida refleksiv amaliyotni izchil rivojlantirish pedagogik amaliyotni faqat dars o'tish va hisobot topshirish jarayonidan tajribani anglash, tahlil qilish va kasbiy faoliyatni izchil takomillashtirish jarayoniga aylantiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Dewey J. How We Think. Boston: D. C. Heath and Company, 1933.
2. Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983.
3. Schön D. A. Educating the Reflective Practitioner. San Francisco: Jossey-Bass, 1987.
4. Richards J. C., Lockhart C. Reflective Teaching in Second Language Classrooms. Cambridge: Cambridge University Press, 1994.
5. Farrell T. S. C. Reflective Practice in Action. Corwin Press, 2004.
6. Farrell T. S. C. Reflective Practice in Teaching English. Routledge, 2019.
7. Hudson P. Mentoring Pre-service Teachers. Routledge, 2013.
8. Sempowicz T., Hudson P. Mentoring pre-service teachers' reflective practices towards producing teaching outcomes // International Journal of Evidence Based Coaching and Mentoring. 2012. Vol. 10, No. 2. P. 52–64.
9. Loughran J. Effective reflective practice // Journal of Teacher Education. 2002. Vol. 53, No. 1.
10. Mann S., Walsh S. Reflective Practice in English Language Teaching: Research-Based Principles and Practices. Routledge, 2017.

Аннотация:

В данных тезисах раскрываются теоретико-методологические основы рефлексивной практики в профессиональной подготовке будущих учителей английского языка. Теоретическую основу исследования составляют теории рефлексии Дж. Дьюи и Д. Шёна, а также работы Т. С. К. Фаррелла, Дж. К. Ричардса и Ч. Локхарта, П. Хадсона. Рефлексивная практика обосновывается как непрерывный профессиональный цикл, состоящий из этапов деятельности, наблюдения, осмысления, анализа, вывода и принятия нового решения; показывается её зависимость от когнитивных, эмоциональных и контекстуальных факторов, а также необходимость опоры на конкретные данные.

Ключевые слова:

рефлексия, рефлексивная практика, reflection-in-action, reflection-on-action, профессиональная рефлексия, педагогическая практика, будущий учитель английского языка.

Abstract:

This thesis presents the theoretical and methodological foundations of reflexive practice in the professional training of pre-service English language teachers. The theoretical framework draws on the reflection theories of J. Dewey and D. Schön, as well as on the works of T. S. C. Farrell, J. C. Richards and C. Lockhart, and P. Hudson. Reflexive practice is substantiated as a continuous professional cycle comprising the stages of action, observation, awareness, analysis, conclusion, and new decision-making; its dependence on cognitive, emotional, and contextual factors, as well as the necessity of relying on evidence, is demonstrated.

Keywords:

reflection, reflexive practice, reflection-in-action, reflection-on-action, professional reflection, pedagogical practicum, pre-service English language teacher.